

Turdikulov Shuxrat Xudoykulovich,

*Toshkent shahar hokimligi Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'limi boshlig'i,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi
akademiyasi tadqiqotchisi, sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
e-mail: txshuhrat65@mail.ru*

KORRUSPSIYAGA QARSHI KURASHISH VA UNI OLDINI OLISHGA QARATILGAN SOTSIOLOGIK TADQIQOTLAR TAHLILI

ANNOTATSIYA: Jahonda korrupsiyaga qarshi amalga oshirilayotgan amaliy tadbirlar va ilmiy tadqiqotlarning sotsiologik tahlilga ko'ra, korrupsiya global muammoga aylanib, uni bartaraf etish xalqaro va milliy darajada muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

So'nggi yillarda mamlakatimizda barcha sohalarida aholining farovonlik darajasini oshirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Maqolada Toshkent shahar hokimligidagi korrupsiya sabablarini aniqlash maqsadida mazkur hokimlik xodimlari o'rtasida o'tkazilgan so'rov natijalariga alohida to'xtalib o'tilgan. Sotsiologik so'rov natijalari ushbu sohada korrupsiya holatlari mavjudligini ko'rsatmoqda.

Kalit so'zlar: korrupsiya, poraxo'rlik, ta'magirlik belgilari, davlat boshqaruvi, dinamika, murosasiz munosabat, ijtimoiy moslashuv, qonun.

АННОТАЦИЯ: Согласно социологическому анализу практической деятельности и научных исследований по борьбе с коррупцией в мире, коррупция стала глобальной проблемой, а ее искоренение остается одной из важных задач на международном и национальном уровнях.

В последние годы в нашей стране во всех сферах реализуются масштабные реформы, направленные на повышение уровня благосостояния населения. В статье, с целью определения причин коррупции в администрации города Ташкента, освещены результаты опроса сотрудников данной администрации. В результате социологического опроса показывают, что в данной сфере встречаются случаи коррупционных ситуаций.

Ключевые слова: коррупция, взяточничество, признаки мошенничества, государственное управление, динамика, непримиримость, социальное регулирование, закон.

ANNOTATION: According to a sociological analysis of practical activities and scientific research to combat corruption in the world, corruption has become a global problem, and its eradication remains one of the important tasks at the international and national levels.

In recent years, our country has been implementing large-scale reforms in all areas aimed at improving the well-being of the population. In order to determine the causes of corruption in the administration of the city of Tashkent, the article highlights the results of a survey of employees of this administration. The results of a sociological survey show that there are cases of corruption in this area.

Key words: corruption, bribery, signs of fraud, public administration, dynamics, intransigence, social regulation, law.

KIRISH

Mamlakatimizda korrupsiyaning oldini olish hamda bartaraf etish, ushbu illatni jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy hayotiga salbiy ta'siri, uning oldini olishda samarali mexanizmlarni takomillashtirish va ushbu sohada yuqori samaradorlikka erishish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning Oliy Majlisga murojaatnomasida «Jamiyatimizda korrupsiya balosi o'zining turli ko'rinishlari bilan taraqqiyotimizga g'ov bo'layotganligi, bu yovuz illatning oldini olmasak, jamiyatning birorta tarmog'i rivojlanmasligi, korrupsiyaga qarshi kurashishda aholining barcha qatlamlari, eng yaxshi mutaxassislar jalb qilinmas ekan, jamiyatimizning barcha a'zolari, ta'bir joiz bo'lsa, «halollik vaksinasi» bilan emlanmas ekan, o'z oldimizga qo'ygan yuksak marralarga erisha olmaymiz», deb ta'kidlab o'tgan edi [1,-B. 1-2]. Korrupsiyaga qarshi immunitetni hosil qilish uchun «korrupsioner» va korrupsiyaga shart-sharoit

yaratuvchi omillarni yo‘qotish, korrupsiyaning oldini olish yo‘nalishlarida sotsiologik tadqiqotlarni amalga oshirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Prezidentimizning «Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlikhar bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak», degan fikrlarining mazmuni hamda mohiyati aynan davlat fuqarolik xizmatchisi o‘z xizmat mavqeidan shaxsiy va boshqa g‘ayriqonuniy maqsadlarda foydalanmasligi kabi holatlarga qaratilgan [2,–B. 1-2].

O‘zbekistonda korrupsiyani miqdoriy baholash va uni modellashtirish, korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olishga qaratilgan sotsiologik tadqiqotlar tahliliga e‘tibor qaratilgan. Unda o‘tkazilgan tadqiqot natijalari tahlil qilinib taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Bugungi kunda korrupsiyani baholashga asoslanishi mumkin bo‘lgan ikki turdagi ma‘lumotlar mavjud:

- Statistik ma‘lumotlar: jinoyatlar, huquqbuzarliklar yoki ma‘muriy ish yuritish muddati statistikasi; korrupsiya holatlari to‘g‘risida ommaviy axborot vositalari, maxsus vakolatli fuqarolar, mansabdor shaxslar, nodavlat notijorat tashkilotlari va boshqalarning xabarlari.

- Tahliliy ma‘lumotlar: korrupsiya haqidagi tasavvurlar, fikr va mulohazalar (fuqarolar, ekspertlar, mahalliy yoki xorijiy tadbirkorlar, nodavlat notijorat tashkilotlari va boshqalarning);

Statistik ma‘lumotlar avtomatik ravishda korrupsiyaning ishonchli o‘lchovi sifatida qabul qilinmasligi kerak va tahliliy ma‘lumotlar ishonchsiz bo‘lishi shart emas. Jinoyat statistikasi bir xil darajada korrupsiya darajasining ko‘rsatkichi va huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatining ko‘rsatkichi bo‘lishi mumkin. Aksincha, yaxshi ma‘lumotga ega bo‘lgan ekspertlardan intervyu olish orqali korrupsiyaning tarqalishi, jiddiyligi va tabiatining juda aniq ko‘rsatkichlarini aniqlash mumkin [3, –B. 28-29].

O‘tkazilgan tadqiqotlar korrupsiyaning rivojlanishiga quyidagi omillari ta’sir qilayotganligini ko‘rsatmoqda:

- aholining daromad darajasi bo‘yicha tabaqalanishi;
- yashirin iqtisodiyotning yuqori ulushi;
- noqonuniy yo‘l bilan olingan daromadlarni “yuvish”;
- tijorat tashkilotlari uchun yuqori soliqlar;
- tijorat banklaridagi kreditlarning yuqori foizlari;
- davlat tashkilotida ishlovchi xodimlarning oylik maoshlarining pastligi;
- oshkoralikning to‘liq yo‘lga qo‘yilmaganligi;
- davlat tashkilotlaridagi mavjud “richag”lar;
- davlat tashkilotlaridagi byurokratik to‘siqlar;
- aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatining pastligi.

Korrupsiya barcha davlat organlarida juda rivojlangan bo‘lib, u davlat resurslaridan noqonuniy va xudbinlik bilan foydalanishga asoslangan. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, korrupsiyaga eng moyil bo‘lgan faoliyat sohalari quyidagilardir: davlat xaridlari; yer ajratish bilan bog‘liq muomalar, qurilish sohasi, soliq undirish, kadrlar korrupsiyasi va boshqalar.

Hozirgi kunda xususiy sektorda ham korrupsiya darajasi keng tarqalgan bo‘lib, u har qanday kattalikdagi tijorat kompaniyalariga ta’sir qilishi mumkin. Tijorat kompaniyalar ham korrupsiya qurboni, ham jinoyatchi bo‘lishi mumkin. Korrupsiyaning ularga hos turlari bu, poraxo‘rlik, otkat, sovg‘alar berish, to‘lovlar va komissiyalar, til birlashtirish, axborot savdosi, o‘g‘irlik, xaridlar bo‘yicha firibgarlik va boshqa bir qator harakatlar.

ASOSIY QISM.

Toshkent shahar hokimligida faoliyat olib borayotgan xodimlarning korrupsiyaga bo‘lgan munosabatlarini o‘rganish natijasida hokimlikda korrupsiya kelib chiqishi sabablarini aniqlash va unga qarshi kurashish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirishga qaratilgan anonim shaklda ijtimoiy so‘rov o‘tkazildi.

So‘rovda Toshkent shahar hokimligida faoliyat olib borayotgan hamda korrupsiya holatlariga duch kelishi mumkin bo‘lgan jami 120 nafar xodim ishtirok etgan bo‘lib, shundan erkaklar 79 nafarni, ayollar 41 nafarni tashkil etgan.


So‘rovda ishtirok etganlar yoshi kesimida eng yuqori ko‘rsatgich 21-40 yosh orasida qayd etilgan bo‘lib, 68% tashkil etgan bo‘lsa, 41-50 yoshdagilar 16%, shuningdek, 51-60 yoshdagi so‘rov ishtirokchilari 10% bo‘lib, 60 yoshdan o‘tganlar 6% tashkil etdi.

Ijtimoiy so‘rovning vazifalari:

- Respondentlarning korrupsiya tushunchasiga tavsiflashini aniqlash;
- So‘rov ishtirokchilaridan eng ko‘p korrupsiya ko‘rinishlariga duch kelgan holatlarni aniqlash;
- Respondentlardan qanday hollarda masalalarini hal qilish uchun sovg‘a, pul, xizmatni taklif qilish mumkinligi yuzasidan fikrlarini o‘rganish;
- Respondentlarning korrupsiyani kamaytirish choralari bo‘yicha fikrlarini o‘rganish;
- Respondentlar fikri asosida Toshkent shahar hokimligida korrupsiya xolatlari ko‘p deb hisoblanadigan yo‘nalishlarni aniqlash;
- Ishtirokchilarning fikri asosida Toshkent shahar hokimligi xodimi tomonidan odob-axloq qoidalarining buzilishi holatlarini o‘rganish;
- Respondentlarning manfaatlar to‘qnashuvi haqidagi ma‘lumotlari bo‘yicha deklaratsiya qilinish vaqtini aniqlash;
- Toshkent shahar hokimligining korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha siyosati tizimi asosini tashkil qiluvchi muhim ichki hujjatlar haqidagi xabardorlik darajasini aniqlash;
- Hokimlik xodimlari tomonidan sodir qilingan korrupsiyaviy xatti-harakatlar haqida ma‘lumot olish;
- Respondentlarning kundalik hayoti davomida korrupsiya bilan bog‘liq holatlarni aniqlash;
- Toshkent shahar hokimligining korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha siyosatida belgilangan sovg‘alarning umumiy qiymati haqida xabardorlik darajasini aniqlash;
- So‘rov ishtirokchilarining mansabdor shaxslarga beriladigan poraning miqdori bo‘yicha xabardorlik darajasini aniqlash.

Endi respondentlarning fikrlariga o‘tamiz.


Respondentlarning kundalik hayotlari davomida korrupsiya bilan bog‘liq holatlarga duch kelish holatlari mavjudligi haqidagi fikrlar o‘rganish jarayonida, so‘rov ishtirokchilarining 42% kundalik hayotlarida korrupsiya bilan bog‘liq holatlarga kamdan-kam uchrayotganlarini ta‘kidladilar. Respondentlarning 22% aksincha, xayoti davomida korrupsiya holatlariga tez-tez duch kelishlarini aytdilar. Shu bilan birga, 19% atrofdegilardan eshitganligini va 17% ishtirokchilar umuman duch kelmaganligini aytdilar.



1-rasm. O‘zingizning kundalik hayotingiz davomida korrupsiya bilan bog‘liq holatlarga duch kelganmisiz?


So‘rovlar natijalariga ko‘ra respondentlarning 42% korrupsiyaviy holatning vazifalarini beparvolik bilan bajarish kabi jarayonlarga duch kelishini ta‘kidlashdi. Shuningdek, 38% so‘rov

ishtirokchilari xizmat lavozimidan noqonuniy foydalanayotgan shaxslar uchrayotganini, 28% hokimiyat vakolatini suyste'mol qiliyotganlarni, 24% pora berish, pora olish holatlariga duch kelayotganini, 24% esa sovg'a taklif qilish kabi holatlar ham uchrab turishini ta'kidlashdi. Ishtirokchilarning fikricha 12% eng kam uchraydigan holatlar shaxslar tomonidan xizmatlar, mol-mulk takliflari kelib tushish holatlari mavjudligini va 9% boshqalarni belgilagan.




2-rasm. Siz korrupsiyaning qaysi ko'rinishlariga duch kelgansiz? (3 tasini tanlang).

Toshkent shahar hokimligi xodimlari tomonidan sodir qilingan korrupsiyaviy xatti-harakatlar uchraganligini o'rganish jarayonida ishtirokchilarning aksariyati 55% bunday holatlar haqida eshitganligini va 14% o'zlari ham duch kelganligini ma'lum qildilar, lekin 31% ishtirokchilar ushbu xatti-harakatlarga duch kelmaganligini aytdilar.




3-rasm. Hokimlik xodimlari tomonidan sodir qilingan korrupsiyaviy xatti-harakatlarga duch kelganmisiz?

Hokimlik xodimlari ish faoliyatida ayrim hollarda ma'lum masalalarni hal qilish maqsadida sovg'a, pul, xizmatni taklif qilish kabi jarayonlar ham uchrab turadi. Ushbu masala bo'yicha respondentlarning 40% har qanday sharoitda taklif qilish mumkin emasligini aytgan bo'lsa, ularning 25% mukofot yoki xizmat miqdori oqilona chegaralarda bo'lgan holda deb javob berdilar. Yuqorida ta'kidlanganidek so'rov ishtirokchilarining 17% u yoki bu masalaning yechimini "pora berish" tezlashtirsa ular korrupsiyaga qo'l urushlarini aytdilar. Shuningdek, agar mansabdor shaxs masalani ijobiy hal qilish uchun belgilangan normalardan chetga chiqsa deb 6% respondentlar javob berdi, 12% respondentlar esa mazkur masalaga o'z fikrlarini bildirishga qiynaldilar.



4-rasm. Sizningcha qanday hollarda masalangizni hal qilish uchun sovg'a, pul, xizmat taklif qilish mumkin?

So'rov ishtirokchilarining ko'pchiligi, ya'ni 59% korrupsiya holatlarining kamaytirilishi davlat tashkilotlari xodimlarning ish haqini va ularning ijtimoiy kafolatlarini oshirsa ushbu maqsadga yetish mumkinligini ta'kidladilar. 43% respondentlar esa korrupsiya uchun jazo choralarini kuchaytirish kerakligini ma'lum qilishdi hamda 34% hodimlar davlat tashkilotlarida xodimlarni rotatsiya (boshqa joylarga o'tkazish) qilish tizimini joriy yetish kerakligini aytdilar. Shular bilan birga, ishtirokchilar orasida, davlat tomonidan ko'rsatiladigan barcha xizmatlarda, inson omilini cheklash lozimligini, fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirish kerakligini va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha targ'ibot ishlarini kopaytirish kerakligi degan fikrlar ham ta'kidlandi.



5-rasm. Quyidagi choralardan qaysi biri korrupsiyani kamaytirishga ta'sir qilishi mumkin? (3 ta javob tanlang)

Navbattadgi savolga Toshkent shahar hokimligida korrupsiya xolatlari eng ko'p deb hisoblanadigan 3 ta yo'nalishlarga 46% respondentlarning fikricha Toshkent shahar hokimligi arxitektura, kapital qurilish va kommunikatsiyalarni rivojlantirish masalalari yo'nalishi, moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish hamda investitsiyalar va tashqi savdo boshqarmalari deb

xisoblamoqdalar. Shuningdek, eng kam korrupsiyaviy holatlar uchraydigan yo‘nalishlar Toshkent shahar hokimligining tashkiliy-nazorat va tahlil boshqarmasi, axborot texnologiyalarini joriy masalalari hamda oila va xotin-qizlar boshqarmalari degan fikrlarni bildirdilar.

So‘rov ishtirokchilarining 46% hokimlik hodimlar tomonidan odob-axloq qoidalarining buzilishi, uni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlikka tortishga sabab bo‘lishini aytdilar. 24 % respondentlar xayfsan berilish kerak degan fikrlarni bildirgan bo‘lib, ularning 21% komissiyada ko‘rib chiqish kerak deb javob berdilar va shu bilan birga 9% respondentlar javob berishlga qiynaldilar.

So‘nggi ikki yilda Toshkent shahar hokimiyatida korrupsiya darajasida ijobiy o‘zgarishlar mavjudligini 65% ishtirokchilar ta’kidlagan bo‘lsa, 22% o‘zgarishlarni sezmagandligini aytishdi. Korrupsiya holati ko‘paygan deb javob berganlar ham aniqlandi, ishtirokchilarning 13% korrupsiyaviy holatlar ko‘p degan fikrlarni bildirdilar.

So‘rov ishtirokchilariga mansabdor shaxslarga beriladigan poraning miqdori yuzasidan berilgan savolga, aksariyat respondentlar, ya’ni 56% mazkur savolga miqdorini bilmasligini aytdilar, 33% so‘rov ishtirokchilari esa 100 mingdan –

1 mln.gacha degan fikrga bordilar. 11% hokimlik hodimlari ushbu savolga 10 mln.dan yuqori deb javob berdilar.

XULOSALAR

Ushbu muammo bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagicha xulosaga kelindi. Birinchidan, asosiy korrupsiya hodisalari davlat tashkilotlarida faoliyat ko‘rsatayotgan xodimlar tomonidan amalga oshiriladi; ikkinchidan, korrupsiya jarayoni asosan juda maxfiy ravishda ikkala tomonning o‘zaro kelishuvi asosida olib boriladi; uchinchidan, korrupsiyaga yo‘l qo‘ygan shaxs ma’naviy jihatdan tuban inson tomonidan amalga oshiriladi; to‘rtinchidan, davlatning byudjet tashkilotlarida mehnatga haq to‘lash miqdorining kamligi; beshinchidan, amaldorlarning hatti-harakati bo‘yicha qat’iy nazoratning yo‘qligi; oltinchidan, rahbar va tashkilotlarda ma’naviy tarbiya va qiyofa yetishmasligi; yettinchidan, ta’magirlarni jazolashda qonun va sud tizimidagi kamchiliklar; sakkizinchidan, ta’magirlik va korrupsiyaning barcha turlari bo‘yicha jazo berish choralari o‘ta yumshoqligi va barcha davlat tashkilotlarida sotsiologik yacheykalar mavjud emasligi. Demak, ushbu illatni bartarf qilishda yuqorida keltirilgan omillarga e’tibor qaratsak, hamda joriy qila olsak ushbu muammoni bartarf qilish va kamaytirish imkoniyati vujudga keladi. Bunda davlat organlari bilan birga fuqarolar ham ongli ravishda harakat qilishlari lozim.

Iqtibolar/Snoski/References:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning oliy majlisga murojaatnomasi. – Toshkent, 2020. "Xalq so‘zi" gazetasi. – Toshkent, 2020. 08-son. 1-2-betlar.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev “Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari...”. "Xalq so‘zi" gazetasi. – Toshkent, 2017. 10-son. 1-2-betlar.
3. Divayn V., Xoppe T. Основные понятия и концепции антикоррупционной деятельности: учебное пособие. – Москва. Анкил, 2013. 28-29 б.
4. “Korrupsiya – jamiyat taraqqiyotiga taxdid” risola / Sh. Turdikulov. – Toshkent 2019. - 36 b.
5. Turdikulov Sh.X «Korrupsiyaga qarshi kurash jamiyat muammosi» Monografiya. –Toshkent: «Bilim va intellektual salohiyat», 2022. –B.70.
6. “Ijtimoiy fikr” jamoatchilik fikrini o‘rganish respublika Markazi rasmiy sayti ma’lumotlari.
7. Bekmurodov M.B. «Zamonaviy boshqaruv sotsiologiyasi». Monografiya. –Toshkent: «Yoshlar nashriyot uyi», 2020. –B.160.
8. Matibaev T.B. O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati: «Korrupsiya – ijtimoiy xavf». Darslik. – Toshkent. 2019. – B.232.
9. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: «Ma’naviyat», 2010. – B.178.



10. O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘RQ-419-sonli Qonuni. – Toshkent, 2017.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining, PQ-3837-sonli Qarori.– Toshkent, 2018.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining, PF-5729-sonli Farmoni. – Toshkent, 2019.